O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK TILI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI TERMINOLOGIYASI TARAQQIYOTI VA TADQIQI

THE DEVELOPMENT AND RESEARCH OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/LOZB6200

Maxkamova Durdona Nematovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dots.v.b., f.f.f.d(PhD),
durdonamahkamova7@gmail.com

Annotation. *This article presents analytical perspectives on the formation, development, and scholarly investigation of Uzbek information and communication technology (ICT) terminology. It also examines the linguistic and extralinguistic factors influencing the development of this terminological system, the sources of term formation, the adaptation of borrowed terms to the lexical system of the Uzbek language, and the creation of national terms. Particular attention is paid to the lexical and semantic features of selected terminological units, their semantic relationships, fields of application, and conceptual precision. Furthermore, the article addresses the relationships among ICT terms and the issues of terminology standardization, consistency, and uniformity. The study concludes by highlighting key aspects of the scientific investigation, systematization, and further improvement of Uzbek information and communication technology terminology.*

Keywords. *Uzbek terminology, term, information and communication technologies, lexical-semantic features, terminology development, standardization.*

Mustaqillik yillarida ilm-fanga kirib kelgan eng yirik yangilik informatsion texnologiyalar va internetdir. Bu elementlar ijtimoiy-iqtisodiy terminologiyaga qisman, aniq fanlar, xususan, informatika va kibernetika terminologik tizimlarida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi.

Dunyoda internet tarmoqlari ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ajralmas va zaruriy vositasi sifatida borgan sari hayotning barcha yo‘nalishlarida keng va mustahkam o‘rin egallamoqda. Internet –ilmiy bilimlarning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanib,uning terminologiyasi doimiy rivojlanishda bo‘lib turibdi va katta tezlikda yangi terminlar bilan boyitilyapti. Rossiya, AQSH, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Malayziya kabi davlatlarda internet terminologiyasi va terminografiyasini takomillashtirish, internet sohasiga kirib kelayotgan yangi tushunchalar yaratilishini nazoratga olish, shakllantirish va funksional xususiyatlari tadqiqi alohida ahamiyatga molik. Mamlakatimizda ham internet tarmog‘i milliy segmentini shakllantirishni ta’minlash, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, turli yo‘nalishlardagi zamonaviy milliy veb-saytlarni yaratish masalalari bilan bir qatorda, soha terminologik tizimini tartibga solish vazifasi ham mavjudki, bu terminshunoslar oldiga tizim birliklarini doimiy ravishda tadqiq etib borish mas’uliyatini yuklaydi. O‘zbek terminologiyasida mazkur soha doirasida D.Kadirbekova tomonidan ingliz va o‘zbek tillaridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi hamda uning leksikografik xususiyatlari tahlilga tortilgan[Кадирбекова,2017]. Mazkur tadqiqot chog‘ishtirma terminologiya bilan bir qatorda hozirgi o‘zbek terminologiyasi uchun ham muayyan ahamiyatga va ilmiy qiymatga ega. Zero, muallif axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasini turli lingvistik rakurslarda tahlil qilgan, 5000ga yaqin terminni tahlilga tortib, ularning yasalishiga ko‘ra statistikasini keltirgan. Dissertatsiyada AKT terminlarining yasalishida affiksatsiya (*kompyuter+-chi –kompyuterchi, raqam+-lashtirish –raqamlashtirish, kod+-lash –kodlash, yuk+-lash –yuklash*), sintaktik(*foydalanishni cheklash, hujumni aniqlash, guruhli signal, shaxsiy imzo kaliti*), leksik-semantik(*worm - qurt, blacklist – qora ro‘yxat, analytic attack-tahliliy hujum, onion skin -sharpa*) va qisqartirish (*DKL → diskret kosinus o‘zgartirish, DIKM →differensial impuls-kod modulatsiyasi, SRIBP → signallarga raqamli ishlov beruvchi protsessor, ShK → Shaxsiy kompyuter, MB →ma’lumotlar bazasi*) usullari orqali hosil bo‘lishi ashyoviy misollar bilan yoritilgan.

Umuman, qisqartmalardan keng foydalanishning sabablari axborot oqimining oshishi, vaqt birligida maksimal axborot uzatilishini ta'minlashga intilish, tildan unumli foydalanish, uning kommunikativ vazifasi samaradorligini oshirishdir. Bu, ayniqsa, fan va texnikaning to‘xtovsiz rivojlanishi natijasida ko‘plab yangi,murakkab so‘z birikmalari orqali ifodalanadigan tushunchalar

yuzaga kelayotgan hozirgi vaqtda juda muhim. So‘nggi vaqtda, telekommunikatsiyalar sohasidagi ilmiy-texnik adabiyotlarida atamalarning qisqartmalari –abbreviatura va akronimlardan keng foydalanilmoqda. Bu narsa, ayniqsa, axborot va axborotlashtirish sohasidagi nashrlarda, shuningdek, Xalqaro elektr-aloqa ittifoqining nashrlarida ko‘p kuzatilmoqda.[Тожибоев, 2007]

Fikrimiz dalili sifatida O‘zAAAning 2007-yil 11-iyuldagi 195-son buyrug‘i bilan amalga joriy qilingan “Telekommunikatsiyalarga oid atamalar qisqartmalarining inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”ni keltiramiz. Mazkur lug‘at xorijiy manbalar, ma’lumotnoma adabiyotlar hamda standartlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda chastota va to‘lqinlarning turli diapazonlarida ishlaydigan, barcha turdagi aloqa tizimlari va vositalaridan foydalanish bo‘yicha 4500dan ortiq qisqartma hamda shartli belgi berilgan. O‘tgan 10 yildan ziyod muddatda mazkur ko‘rsatgich yanada ortgan, sanalgan ayrim qisqartmalar yangilangan, ehtimol, iste’moldan chiqqan bo‘lishi ham mumkin.

D.Saidqodirova tomonidan internet terminologiyasining chog‘ishtirma tahlili amalga oshirilib, ingliz tilidan o‘zbek tiliga termin o‘zlashtirish modellari aniqlangan. Shuningdek, D.Saidqodirova mustaqillik yillarida kirib kelgan yangi soha –internet terminologiyasining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatadi:

1) internet tushunchalarining ochiqligi;

2) tur va xilga oid munosabatlarning mavjud emasligi yoki noaniqligi;

3) emotiv komponentlar bilan murakkablashtirilganligi;

4) umumiste’mol leksikasi bilan genetik bog‘liqligi va faol ta’sirlashuvi;

5) o‘zlashmalar qabul qilish;

6) tezkorlik bilan lug‘at zahirasining boyib borishi.[Саидқодирова, 2008: 15]

Ta’kidlanganidek, terminologik tizim doirasidagi modernizatsiya leksik modernizatsiyalashuvdir va u ham o‘z ichida bir qancha turlarga ajraladi. Ayrim sohalar terminologik tizimida leksik-struktur modernizatsiyalashuv jarayonining keng tarqalganini, ba’zi sohalar doirasida esa leksik-semantik modernizatsiyalashuv jarayoni jadallashgani ko‘zga tashlanadi.

Kompyuter texnikasiga oid tushunchalarni ifodalash uchun rus va ingliz tillaridagi terminlarni kalkalab olishda ham o‘zbek tilidagi tegishli so‘z ma’nolarida kengayish kuzatiladi[Маҳмудов,2015:3-16]. Masalan, o‘zbek tilidagi *savodxonlik, manzil (// adres), yuklamoq, qotmoq, saqlamoq* kabi bir qancha so‘zlar o‘z ma’nolarini saqlagan holda kompyuter texnikasiga daxldor ma’nolarni ham o‘z ustiga olgan. Bu holni *kompyuter savodxonligi, elektron*

manzil (// adres), axborotni yuklamoq, kompyuter qotib qoldi, axborotni saqlamoq kabi birikmalardagi mazkur so‘zlar semantikasida ko‘rish mumkin. *Elektron tijorat, elektron savdo, elektron nashr, elektron imzo, elektron pochta* kabi birikmalar tarkibidagi *tijorat, savdo, nashr, imzo, pochta* kabi so‘zlarda yuz bergan ma’no kengayishi ham yuqoridagi fikrni dalillaydi. Ammo shuni ham ta’kidlamoq joizki, “kompyuterga axborot kiritish qurilmalaridan biri” degan tushuncha ingliz tilida *mouse* (“sichqon”) so‘zi bilan shaklga ko‘ra metafora yo‘li bilan nomlangan, bu so‘z rus tiliga *мышь,* undan o‘zbek tiliga *sichqon* tarzida kalkalash yo‘li bilan kirib kelgan. Bu tushuncha boshqa tillarda ham bevosita muqobil so‘z vositasida berilgan, ya’ni: *siçan (*ozarb.), *сыскан* (boshqird.), *тышқан* (qozoq), *siçan* (turk.) va sh.k.

Kompyuter lingvistikasi terminlar tizimida leksik-semantik modernizatsiyani keng uchratish mumkin.

Leksik-semantik modernizatsiya o‘z o‘rnida, ikki turdagi terminlarni akslantiradi:

1) tilda mavjud biror so‘zning terminologik tizimda yangi ma’no kasb etishi;

2) sohaga yangi so‘zning kirib kelishi(neologizmlar).

Leksik-semantik modernizatsiyalashuvning birinchi turi, ya’ni tilda mavjud biror so‘zning terminologik tizimda yangi ma’no hosil qilishi orqali termin yasash usulidan AKT terminologiyasida keng foydalaniladi. So‘nggi yillarda elektron xizmat ko‘rsatishning rivojlanishi, ko‘plab sohalarda inson omilining o‘rniga mashina xizmatidan foydalanish ommalashayotgani yangi AKT terminlari hosil bo‘lishida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, biror vazifani bajaruvchi dastur, tizim nomini bildiruvchi termin uchun ko‘p hollarda sememasida shu tur vazifani bajarish semasi bo‘lgan shaxs otini bildiruvchi so‘z tanlanadi. *Matn muharriri, korpus menejeri* kabi terminlar aynan shu usulda hosil qilingan. Ma’lumki, *muharrir*-kitobatchilik terminologiyasida: matnni tahrirlash, yaratish bilan shug‘ullanuvchi shaxs. Axborot texnologiyalari terminologik tizimida – matnni tahrirlash, yaratish operatsiyalarini amalga oshiruvchi dastur(*WORD matn muharriri*).

Menejer (inglizcha: *manager* – boshqaruvchi) - 1) korxona va kompaniya egalari bo‘lmagan, maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis – yollanma boshqaruvchi.

2) rivojlangan mamlakatlarda kompaniya, firma, korxona, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatga ega bo‘lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma’muriy boshqaruvchi kabi rahbar xodimi.

3) obligatsiya zayomlari chiqarish (emissiya) va uni kapital bozorida o‘tkazish bilan shug‘ullanuvchi bank sindikatlari rahbar guruhlari ishtirokchisi[https://uz.wikipedia.org/wiki/Menejer].

Korpus menejeri -korpusdagi ma’lumotlarni qidirish, statistik ma’lumotlarni olish va foydalanuvchiga natijalarni qulay shaklda taqdim etuvchi dasturiy vositalarni o‘z ichiga olgan maxsus qidiruv tizimi[Абжалова,2022: 20].

Leksik-semantik modernizatsiyalashuvning birinchi turi foydalanuvchiga termin tarkibining birlamchi ma’nosi haqida tasavvurga ega bo‘lish va shuning asnosida uning kompyuter lingvistikasidagi mazmuni haqida xulosa chiqarishga imkon beradi: masalan , *avtomatik tarjima, matn tahriri, operator, tabiiy tillar...* Garchi bu turdagi terminlar oson tushunilsa-da, ularning ommalashuvi, soha doirasida keng iste’molga kirishi sohaning, nafaqat kompyuter lingvistikasi balki, tilshunoslikning ham modernizatsiyalashuviga olib keladi. Leksik-semantik modernizatsiyalashuvning ikkinchi turiga mansub terminlar esa tom ma’nodagi yangilikdir. Zotan, ular tilshunoslik doirasida ham, axborot texnologiyalari terminologik tizimida ham uchramaydi. Ularni yuqoridagi ikki sohaning kesishuvi –kompyuter lingvistikasida ko‘rish mumkin. Ayni paytda mazkur tur terminlarning o‘zga tildan kirib kelishi, ma’no jihatdan ham notanish sema kasb etishini ta’kidlash joiz. *Semantik transfer, lingvistik ta’minot, korpusshunoslik* kabi terminlar shular jumlasidandir.

Umuman, kompyuter lingvistikasi terminlar tizimini doimiy dinamik tizim(modernizatsiyalashuvchi) sifatida baholash mumkin. Chunki tildagi sohalar terminologiyasi tizimida ayrim sohalar doimiy o‘zgarishlar (ba’zan kordinal o‘zgarishlar)ga moyil. Misol uchun yurisprudensiya, iqtisodiyot, texnika, axborot texnologiyalari singari sohalar har qanday jamiyat hayotida bevosita siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ular doimiy ravishda modernizatsiyalashib boradi. Bu jarayon o‘z o‘rnida, soha terminologik tizimida aks etadi. Termin esa leksema sifatida tilning leksik sathi, kompyuter lingvistikasi ta’biri bilan aytganda, korpusni tarkib toptiruvchilardan sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Абжалова М. Корпус лингвистикаси. –Тошкент: Bookmany print , 2022. – Б.20.

2. Аҳмедова Ё. Алоқа ва ахборотлаштириш соҳаси терминологияси масалалари//Атамашунослик –касбий тафаккурни шакллантиришда, фан ва таълимни ривожлантиришда. –Тошкент, 2008. –Б.78.

3. Кадирбекова Д. Инглизча-ўзбекча ахборот-kommunikatsiya технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол.фан.ном..диссер. автореф. –Тошкент, 2017.

4. Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожида фаоллашган жараёнлар//Ўзбек тили ва адабиёти. -.№5. –Тошкент, 2015. –Б.3-16

5. Mahkamova D. Modernizatsiyalashuv tushunchasining terminologik mavqeyi // O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI. № 9. – Toshkent, 2024. -290-292. http://journals.nuu.uz Social sciences

6. Саидқодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи: филол.фан.б.фалсафа докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. –Б.15.

7. Тожибоев Ш. Телекоммуникацияларга оид атамалар қисқартмаларининг инглизча-русча-ўзбекча луғати.–Тошкент, 2007.– 367 Б.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**